

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.01.2020.I.20.06
RAQAMLI ILMIY KENGASH

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

GABBAROV SABIT NIYETALIEVICH

CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA YAYLOVLARDAN
SAMARALI FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘ng‘irot tumani misolida)

08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

IQTISODIYOT FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus - 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Gabbarov Sabit Nietalievich

Chorvachilikni rivojlantirishda yaylovlardan samarali foydalanishni takomillashtirish (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'irot tumani misolida)..... 3

Габбаров Сабит Ниеталыевич

Совершенствование эффективности использования пастбищ в развитии животноводства (на примере Кунградского района Республики Каракалпакстан)27

Gabbarov Sabit Nietalievich

Improving the efficiency of pasture use in the development of animal husbandry (on the example of the Kungrad district of the Republic of Karakalpakstan)53

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works57

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.01.2020.I.20.06
RAQAMLI ILMIY KENGASH

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

GABBAROV SABIT NIYETALIEVICH

CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA YAYLOVLARDAN
SAMARALI FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘ng‘irot tumani misolida)

08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

IQTISODIYOT FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Iqt1947 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sauxanov Janibek Kaziyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ubaydullayev Kayrulla
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Narbayev Sharafatdin Kengeshovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.I.20.06 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «17» may soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78; faks: (99861) 223-60-19; e-mail: karsu_info@edu.uz).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (132 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78; faks: (99861) 223-60-19; e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «2» may kuni tarqatildi.
(2023 yil «2» may dagi 26 raqamli vestr bayonnomasi).



[Handwritten signature]

N.U.Arabov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

[Handwritten signature]

R.B.Utemuratov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD., dotsent

[Handwritten signature]

I.Doschanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, mavjud imkoniyatlar doirasida qishloq xo'jaligi, xususan chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning optimal variantlarini aniqlash masalalari dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Bu esa, ayni paytda, chorvachilikni rivojlantirishning istiqbolli yo'llarini aniqlashni taqozo etmoqda. "Chorvachilikning asosiy tabiiy resursi hisoblangan yaylovlar butun dunyoda chorva mollari uchun asosiy ozuqa manbai bo'lib, nam hududlarda aralash qishloq xo'jaligi sutning 90 foizidan ortig'ini, qo'y va echki go'shtining 70 foizi va mol go'shtining 35 foizini ta'minlaydi. Shuningdek, bir yillik ekin maydonlarini almashlab ekishda ulardan yaylov sifatida foydalanish o'simliklarni intensivlashtirish, rentabellikni hamda fermer xo'jaliklari xavfsizligini oshirish, tabiiy resurslar hamda atrof muhitni himoya qilishga yordam beradi"¹. Shu sababli chorvachilikni rivojlantirish hamda soha mahsuloti resurs sig'imini kamaytirish, samaradorlikni oshirishda zamonaviy usullardan foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga tadbiiq qilishda "aqlli" texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda oziq-ovqat xavfsizligiga bo'lgan ehtiyoj tobora kuchayib borayotgan sharoitda chorvachilikni rivojlantirish muammolariga qaratilgan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Har bir birlik yer resursiga ekologik bosim hamda yerlar degredatsiyasi darajasini pasaytirish, chorvachilikni rivojlantirishda yaylov resurslardan optimal foydalanish imkoniyatlarini aniqlash, chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari tomonidan yaylovlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llash, chorva tabiiy ozuqasi bilan ta'minlaydigan yer resurslaridan samarali va optimal foydalanish yo'nalishlarini aniqlash orqali zarur miqdordagi ekologik toza chorvachilik oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning innovatsion yo'nalishlarini belgilash, ularni mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun maqbullashtirish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida chorvachilikni rivojlantirish, chorva mollari muqobil aylanmasini takomillashtirishda nasldor turlari bosh sonini ko'paytirish va mahsuldorligini oshirish bo'yicha yangi loyihalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga samarali tadbiiq etish, mazkur jarayonda resurslardan optimal foydalanish yo'llarini aniqlashda "aqlli" texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Oziq-ovqat, xususan chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning barqarorligiga erishishda ham aynan yaylovlardan samarali foydalanish, qayta tiklash va hosildorlikni oshirish; 2022 yilda 2,2 mln. gektar yaylovlarda geobotanik tadqiqotlarni amalga oshirish va yaylovlarni qayta tiklash choralarini ko'rish; cho'l yaylov o'simliklari urug'chiligi bazasini yaratish."²

¹ <https://www.worldbank.org/en/topic/agriculture/overview>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

kabi qator ustuvor vazifalar belgilangan. Bu borada chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanayotgan har bir subyektning qaror qabul qilish jarayonida innovatsion yangiliklarni qo'llagan holda miqdoriy usullardan foydalanish imkoniyatini yaratib berish, sohada yetishtirilgan mahsulotlar resurs sig'imini optimal miqdorlarini asoslash, chorvachilikni rivojlantirishda ozuqa ratsionlari tarkibini matematik va ekonometrik usullar yordamida asoslash, yaylovlardan samarali foydalanish masalalari bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 8-fevraldagi PQ-121-son "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorijiy davlatlarda chorvachilikni rivojlantirish, ozuqa bazasini mustahkamlash, soha taraqqiyotini ta'minlashda yaylovlardan foydalanish nazariyasi va amaliyoti ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Jumladan Dahal Subash, Msintire J., Grase D., Meharabi Z., Gill M., Vijk M.V., Herrero M., Ramankutti N., Xade Shrikant, Xillare Rajpal, Mb Dastagiri, Mekonnen M.M., Hoyekstra A.Y., Vilkinson J.M., Li M.R.F., Rivero M.J., Chamberlayn, A.T., Putfarken D., Dengler J., Lehmann S., Hardtle V., Herlin A., Brunberg E., Hultgren J., Xo'gberg N., Ryudberg A., Skarin A., Siniskalchi M., Grinvud P.L., Paul D.R., Maknalli J., Kalinovski T., Ebert D., Littl B., Smit D.V., Rahman A., Valensiya P., Ingham A.B., Bishop-Horley G.J.³ va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida mazkur masalalar tadqiq qilingan.

³ Dahal, Subash (2017). Sustainability in Pasture-based Livestock Production System: A Review. 10.13140/RG.2.2.25258.41928.; Mcintire J., Grace D. (2020) The Impact of Livestock Research at the International Livestock Research Institute (Oxford: CABI); Meharabi Z., Gill M., Wijk M.V., Herrero M., Ramankutti N. (2020). Livestock policy for sustainable development. Nature Food 1(3): 160–65.; Khade Shrikant, Khillare Rajpal, Mb Dastagiri. (2021). Global livestock development: Policies and vision. The Indian journal of animal sciences. 91. 770-779. 10.56093/ijans.v91i9.116470.; Mekonnen M.M., Hoekstra A.Y. (2012) A global assessment of the water footprint of farm animal products Ecosystems 15 401–15; Wilkinson, J.M., Lee, M.R.F., Rivero M.J., Chamberlain A.T. (2020). Some challenges and opportunities for grazing dairy cows on temperate pastures. Grass and Forage Science 75, 1–17.; Putfarken D., Dengler J., Lehmann S., Härdtle W. (2008). Site use of grazing cattle and sheep in a large-scale pasture landscape: A GPS/GIS assessment. Applied Animal Behaviour Science 111, 54–56.; Herlin A., Brunberg E., Hultgren J., Högberg N., Rydberg A., Skarin A., Siniscalchi M., (2021). Animal Welfare Implications of Digital Tools for Monitoring and Management of Cattle and Sheep on Pasture. Animals 11, 829.; Greenwood P.L., Paull D.R., McNally J., Kalinowski T., Ebert D., Little B., Smith D.V., Rahman A., Valencia P., Ingham A.B., Bishop-Hurley G.J. (2017). Use of sensor-determined behaviours to develop algorithms for pasture intake by individual

MDH olimlaridan Анискина М.В., Сенько А.В., Шацкая Е.С., Куликова Н.И., Баранникова И., Приступа В.Н., Насиев Б.Н., Маканова Г.Н., Рзаев Н., Смаилов К.Ш., Стыбаев Г.Ж., Исаева Ж.Б., Ногаев А.А., Косолапов В.М., Трофимов И.А., Турдубаев Т.Т., В.В. Шевцов, Артемова Е.⁴ va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida chorvachilikni rivojlantirish va intensivlashtirish texnologiyalari, tabiiy yaylovlardan foydalanish sharoitlari, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda yaylovlar rolini baholash masalalari keng yoritilgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Gulyamov S.S., Shodiyev T.Sh., Abdullayev Yo.A., Doschanov T.D., Ruzmetov B.R., Narbayev Sh.K., Abdullayev I.S., Yuldoshev D., Ro'ziyev R., Yo'ldoshev M., Sauxanov J., Yusupov M.S., Utarov A.K., Bobokulov N.A.⁵ va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi rivojlanishini statistik va ekonometrik usullar yordamida tadqiq qilish

grazing cattle. *Crop and Pasture Science* 68, 1091–1099.

⁴ Анискина М.В., Сенько А.В., Шацкая Е.С. Влияние стресс-факторов в птицеводстве и пути их снижения. Современное развитие животноводства в условиях становления цифрового сельского хозяйства: материалы международной научнопрактической конференции «От инерции к развитию: научноинновационное обеспечение сельского хозяйства», 21-22 сентября 2020г. – Персиановский: Донской ГАУ, 2020. – 373 с., Куликова Н.И. Основы животноводства: учеб.-метод. пособие / Н.И.Куликова, О.Н. Еременко, А.О. Малахова. – Краснодар: КубГАУ, 2014. – 366 с.; Баранникова И., Приступа В.Н. Технология интенсивного животноводства. – Ростов-на-Дону: Феникс. – 2008. – 608 с., Насиев Б.Н., Маканова Г.Н., Рзаев Н. Факторы деградации кормовых угодий полупустынной зоны. //Известия Национальной Академии наук Республики Казахстан. - 2014. - №4 (22). - С. 34-36.; Смаилов К.Ш., Стыбаев Г.Ж., Исаева Ж.Б., Ногаев А.А. Использование природных пастбищ в условиях Жамбылской области. //Вестник науки Казахского агротехнического университета им. С. Сейфуллина. -2017. - №1 (92). - С. 51-56.; Косолапов В.М., Трофимов И.А. Роль пастбищ в развитии сельского хозяйства России. Роль культурных пастбищ в развитии молочного скотоводства Нечерноземной зоны России в современных условиях. Сборник научных трудов на основе материалов Международной научнопрактической конференции по развитию лугопастбищного хозяйства, посвященной 50-летию ОАО «Михайловское» Ярославской области (г. Ярославль, 7–9 июня 2010 г.) / под общей ред. Н. А. Ларетина, А. А. Кутузовой, В. М. Косолапова. —М. : Угрешская типография, 2010. — 240 с.; Турдубаев Т.Т. Породные ресурсы овец Кыргызстана и их рациональное использование: автореф. ...докторской диссертации. Бишкек, 2012. - 30с.; В.В. Шевцов, В.В. Шевцов ИНТЕНСИФИКАЦИЯ ПАСТБИЩНОГО ЖИВОТНОВОДСТВА, ВЕСТНИК Государственного научного учреждения Всероссийский научно-исследовательский институт электрификации сельского хозяйства / Под ред Д.С. Стребкова. Выпуск №1(5)/2010. Серия «Энергетика и электротехнологии в сельском хозяйстве». – М.: ГНУ ВИЭСХ, 2010. – 172 с.; Артемова Е. Экономические аспекты инновационного развития животноводства (теория и практика): автореф. дисс. докт. экон. наук//Е.Артемова. – Краснодар, 2008. – 46 с.

⁵Gulyamov S.S., Abdullaev A.M., Olimjonov A.U. Vaqtli qatorlarning statistik tahlili va mavsumiy tebranishlarni prognozlashtirish. /B.To'rayevning umumiy tahriri ostida. –Т.: «Fan va texnologiya», 2016, 284 bet; Шодиев Т.Ш. Проблемы моделирования развития сельского хозяйства (на примере Узбекистана): Дис. ...док. экон. наук. Т. 1988. – 380 с.; Abdullayev Yo.A. Statistika nazariyasi. Darslik, -Т.: O'qituvchi, 2002. – b. 592.; Досчанов Т.Д. Экономико-экологические основы производства и применения продукции химической промышленности в АПК. дисс. на соис. докт. экон. наук. Т.: 1990. – 405 с., Рuzmetov B.P. Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореф. дисс. ...док. эк. наук. -Т.: 1998. - 39 с.; Нарбаев Ш.К. Совершенствование организационно-экономических основ формирования системы пастбищепользования (На материалах Республики Каракалпакстан). Iqt.fan.dok.diss. –Т.: ТИИИМСХ. 2018. – 123 с; Abdullayev I.S. Mintaqaviy iqtisodiy tizimni optimal tartibga solishning mexanizmlarini takomillashtirish. iqt.fan.dok. avtoref. – Т.: TDIU. 2017. – 66 b.; Yuldoshev D., Ro'ziyev R., Yo'ldoshev M. O'zbekiston cho'l yaylovlarining bugungi holati va yaylovlarda qo'ylarni boqishdagi ozuqlantirish tavsiyalari. "Cho'l yaylov chorvachiligining rivojlanish istiqbollari" Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining 90 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari-Samarqand-2020 y. 354-bet.; Сауханов, Ж. (2020). Эконометрическая оценка эффективности производства мяса при рациональном использовании пастбищ. Экономика И Образование, 1(4), 156–161. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/452.; Yusupov M.S. Jahon amaliyotida qishloq xo'jaligini tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlari. Monografiya.–Т.: IQTISODIYOT, 2017. – 282 б. Бобокулов Н.А. и др. Рациональное использование кормовых ресурсов в пустынно-пастбищном животноводстве. Самарканд, 2012, 29 с.

uslubiyati, chorvachilik rivojining hozirgi holati, soha taraqqiyotini ta'minlashda yaylovlardan foydalanish imkoniyatlari, chorva turlari optimal ratsionlari va cho'l yaylov chorvachiligini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari atroflicha tadqiq etilgan.

Biroq, mazkur tadqiqotlarda, chorvachilikni rivojlantirish va mahsulot yetishtirishda resurs sig'imini optimallashtirish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashda "aqlli" texnologiyalarni joriy qilish masalalari kompleks holda tadqiq qilinmagan. Shuningdek, optimizatsion usullardan foydalanish masalalarini "aqlli" texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalangan holda soddalashtirish, maxsus dasturlarni yaratish masalalari yetarlicha o'rganilmaganligi sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi va bu ushbu tadqiqot mavzusini tanlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Qoraqalpog davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog'iston Respublikasi shimoliy hududlarida chorvachilikni rivojlantirishda yaylovlardan samarali foydalanishni takomillashtirish asosida chorvachilik fermer xo'jaliklari daromadini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

chorvachilikni rivojlantirish hamda yaylov resurslaridan foydalanishni optimallashtirishda nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq qilish;

chorvachilikni rivojlantirishda yaylovlardan foydalanishni yo'lga qo'ygan xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish, qiyosiy tahlilini amalga oshirish va ulardan Qoraqalpog'iston Respublikasida foydalanish;

Qoraqalpog'iston Respublikasida chorva tarkibi, qishloq xo'jaligi va tashkilotlarining foydalanadigan yerlari o'zgarishi dinamikasining statistik tahlilini amalga oshirish va mavjud muammolarni aniqlash;

Qo'ng'iro't tumanida chorvachilikni rivojlantirishda yaylovlardan foydalanish samaradorligini miqdoriy baholash;

yaylov chorvachiligida aqlli texnologiyalardan foydalanishning dasturiy ta'minotini ishlab chiqish va ularni chorvachilik xo'jaliklari faoliyatini optimallashtirish uchun zaruriy elektron bazani shakllantirish;

yaylov chorvachiligini rivojlantirish va subyektlari daromadini optimallashtirishda "aqlli" texnologiyalarni qo'llashning istiqbolli yo'nalishlarini asoslash;

Qo'ng'iro't tumanida chorva bosh soni va tarkibini ko'p variantli ekonometrik modellar asosida o'rta muddatga prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumanida yaylov chorvachiligi bilan shug'ullanuvchi subyektlari va ularning faoliyat natijalari olingan.

Tadqiqot predmetini chorvachilikni rivojlantirishda yaylovlardan samarali foydalanishni takomillashtirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada empirik va nazariy tadqiqot usullari,

xususan ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, sintez, induksiya va deduksiya, ssenariy va ekspertlar, chiziqli dasturlash, iqtisodiy-statistik tahlil, regression va korrelyatsion tahlil, ekonometrik modellashtirish kabi usullardan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

chorvachilikni rivojlantirishda yaylovlardan samarali foydalanish darajasini baholash yalpi chorvachilik mahsulotlari yetishtirish, chorva bosh soniga yaylovlar va pichanzorlar maydonidagi ekologik bosim o'zgarish ta'sirini miqdoriy ifodalash asosida takomillashtirilgan;

yaylovlarda chorvachilik bilan shug'ullanuvchi subyektlar faoliyatida ishchi kuchi, suv va yer resurslaridan optimal foydalangan holda daromadni maksimallashtirish modelini shakllantirish va joriy etishda zaruriy ma'lumotlar bazasining elektron platformasidan foydalanish taklifi ishlab chiqilgan;

Qo'ng'irot tumanida yaylov chorvachiligida "aqli" texnologiyalardan foydalangan holda chorvaning optimal tarkibini shakllantirish asosida yerda ozuqa ratsionlar resurslaridan foydalanish samaradorligi va subyektlar daromadini 10-15 foiz chegarasida oshirish imkoniyati asoslangan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, jumladan, Qo'ng'irot tumanida chorvachilik faoliyati asosiy ko'rsatkichlarining ko'p variantli ekonometrik modellar asosida 2026 yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

qishloq xo'jaligidagi daromadlarni oshirish yoki xarajatlarni minimallashtirish, mahsulot yetishtirish jarayonlarini intensivlashtirish asosida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda optimizatsion modellardan foydalanish taklifi asoslangan;

chorvachilik sohasidagi jahon tajribasiga asoslanilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasida dehqonchilik va chorvachilikni integratsiyalashgan holda rivojlashtirish, dehqonchilik bilan shug'ullanilayotgan maydonlardan, xususan, sharqiy hududlarda hosilni yig'ib olgandan keyin ma'lum muddatga yaylov fondi sifatida foydalanish yerlarning unumdorligini oshirishga va chorva mahsulotlarini ko'paytirishga xizmat qilishi asoslangan;

"Livestock efficiency in pasture" platformadan foydalanish asosida chorva tarkibini aniqlash, xo'jalik faoliyatining istiqbolli yo'nalishlarini belgilash hamda daromadni optimallashtirish yo'nalishlarini asoslash orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash taklif qilingan;

Qo'ng'irot tumanida chorva tarkibidagi o'zgarish va optimallashtirish keyingi yillarda ham davom etishi, o'sish sur'atlarining ta'minlanishi chorva tarkibidagi o'zgarishga olib kelishi va yaylovlardan foydalanish darajasini oshishi hisobidan chorva mahsulotlarini ko'payishga erishilishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada qo'llanilgan yondashuv, xususan, miqdoriy usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi davriy hisobotlaridan olinganligi, keltirilgan tahlil va tajriba-sinov ishlari samaradorligi, tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga muvaffaqiyatli qo'llanilgan platforma va uning asosida olingan natijalar ekonometrik va statistik usullar

vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chorvachilik mahsulotlari, chorva turlari soniga yaylov va pichanzorlar maydonidagi ekologik bosim o'zgarish ta'sirini ifodalovchi elastiklik koeffitsiyentlarini aniqlash asosida chorvachilikni rivojlantirishda yaylovlardan foydalanish samaradorligi baholash, chorvani optimal tarkibini shakllantirish masalasini yechishning dasturiy ta'minotini ishlab chiqish, yaylov chorvachiligini "aqlli" texnologiyalar asosida rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalarning qishloq xo'jaligida ekonometrik modellardan "aqlli" texnologiyalar asosida foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyadagi statistik usullar va ekonometrik modellar, ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot, taklif va xulosalardan, yaylov chorvachiligini optimallashtirishda "aqlli" texnologiyalardan foydalangan holda qisqa o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan istiqbolli dasturlarni fermer xo'jaligi, mintaqa va davlat miqyosida ishlab chiqish, mavjud ekologik va resurslar taqchilligi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish, oliy ta'lim muassasalarida "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", "Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari", "Chorvachilikni tashkil qilish va optimal boshqarish" fanlarini o'qitishda va sohaga oid ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Chorvachilikni rivojlantirishda yaylovlardan samarali foydalanishni takomillashtirish (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumani misolida) bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar asosida:

chorvachilikni rivojlantirishda yaylovlardan samarali foydalanish darajasini baholash yalpi chorvachilik mahsulotlari yetishtirish, chorva bosh soniga yaylovlar va pichanzorlar maydonidagi ekologik bosim o'zgarish ta'sirini miqdoriy ifodalash asosida takomillashtirish taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi faoliyatida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 5-dekabr kungi №03/016-3535-son ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi yaylovlardan foydalangan holda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish va chorvaning asosiy samarali asosiy turlarini miqdoriy usullar yordamida aniqlash imkoniyatini yaratgan;

yaylovlarda chorvachilik bilan shug'ullanuvchi subyektlar faoliyatida ishchi kuchi, suv va yer resurslaridan optimal foydalangan holda daromadni maksimallashtirish modelini shakllantirish va joriy etishda zaruriy ma'lumotlar bazasining elektron platformasidan foydalanish taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi faoliyatida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 5-dekabr kungi №03/016-3535-son ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi yaylov chorvachiligini rivojlantirishda chorvani optimal tanlash, xo'jaliklar daromadini maksimallashtirishni ta'minlaydigan dasturiy ta'minotni amaliyotga

joriy qilishga xizmat qilgan;

Qo'ng'iro't tumanida yaylov chorvachiligida "aqli" texnologiyalardan foydalangan holda chorvaning optimal tarkibini shakllantirish asosida yer resurslaridan foydalanish samaradorligi va subyektlar daromadini 10-15 foiz chegarasida oshirish taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi faoliyatida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 5-dekabr kungi №03/016-3535-son ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida chorvachilik bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklari faoliyatini optimallashtirish asosida ularning yer resurslaridan samarali foydalanishini tashkil qilish hamda daromadlarini 12,9 foizga qadar oshirish imkoniyati yaratilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, jumladan, Qo'ng'iro't tumanida chorvachilik faoliyati asosiy ko'rsatkichlarining ko'p variantli ekonometrik modellar asosida 2026 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz parametrlaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi faoliyatida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 5-dekabr kungi №03/016-3535-son ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida uzoq muddatli istiqbolda chorvachilik faoliyati asosiy ko'rsatkichlarini o'zaro muvofiqlashtirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 5 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha OAK ning doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta maqola (6 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Shuningdek, tadqiqot natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi tomonidan EHM uchun yaratilgan platformaning rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida 2 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 123 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Chorvachilik samarasini asoslashda optimizatsion modellarni qo'llashning nazariy va uslubiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida yaylovlarda chorvachilikni rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari tadqiq qilingan, yaylov resurslaridan foydalanish samarasini optimallashtirishning nazariy-

uslubiy asoslari keltirilgan, yaylovlardan foydalangan holda chorvachilikni rivojlantirishning xorijiy tajribalari o‘rganilgan. Yaylovga asoslangan chorvachilik tizimida barqarorlikni ta‘minlash uchun ushbu jarayonni turli yo‘nalishlar va davrlar miqyosidagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda yondashish zarur. Bunda nafaqat resurslar mavjudligini, balki chorvachilik tizimi va atrof-muhitning funksional yaxlitligini hisobga olish lozim bo‘ladi. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga tayangan holda yaylovlarda chorvachilik barqarorligini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan muhim vazifalarga to‘xtalib o‘tamiz (1-jadval). Jadvalda yaylov barqarorligini ta‘minlaydigan ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va siyosiy turlarining muhim jihatlari keltirilgan.

1-jadval

Yaylov chorvachiligi barqarorligining muhim nuqtalari tavsifi⁶

Turi	Yaylovdagi chorvachilik barqarorligining muhim nuqtalarining tavsifi
Ijtimoiy	<ul style="list-style-type: none"> - yosh avlodning qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanishga qiziqishining yo‘qligi hamda sohada vorislik tushunchalarining kamayishi qishloq xo‘jaligi rivojini ta‘minlashdagi muhim to‘siqlardan hisoblanadi; - qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish sir asrorlarini biladigan aholining qarishi va yosh avlodni bu bilimlarni saqlab qolishga qiziqmasligi; - mehnat qilish imkoniyatlari va ish haqi xo‘jalik a‘zolarini xo‘jalikdan tashqaridagi mehnat ulushi oshib borishini ta‘minlamoqda. Buni faqat iqtisodiy nuqtai nazardan qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi, chunki insonlar turmush tarzi o‘zgarishi hamda qadriyatlardagi o‘zgarishlarni ham hisobga olish lozim.
Iqtisodiy	<ul style="list-style-type: none"> - yaylov chorvachiligida uyda turli maxsus yem-xashak berib boqiladigan chorvachilikka nisbatan unumdorlikning past bo‘lishi; - yaylovlarga asoslangan chorvachilik fermer xo‘jaliklari nisbatan kam xarajatli hisoblanadi; - yaylovlarga asoslangan chorvachilik fermer xo‘jaliklarida mahsuldorlik va samaradorlik ancha past hisoblanadi, ammo, yaylovlardan foydalanishning alternativ variantining mavjud emasligi hamda oziq-ovqat xavfsizligining keskinlashuvi bu sohani rivojlantirishni muhimligini tobara oshirib bormoqda; - mehnat unumdorligining chorva tarkibiga ko‘ra farq qilishi ya‘ni qoramolchilikka qaraganda qo‘ychilikda samaradorlik ancha past hisoblanadi.
Ekologik	<ul style="list-style-type: none"> - yaylov chorvachiligi tuproq tarkibini yaxshilash, tabiiy mineral o‘g‘it bilan to‘yinishini ta‘minlaydi, o‘simlik turlari ko‘payishiga yordam beradi; - yaylov chorvachiligi ba‘zi hududlarda yovvoyi tabiatga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi, ya‘ni ular uchun zarur bo‘lgan biomassani kamayishiga olib kelishi mumkin; - chorva mollarini boqish o‘simliklar dinamikasini o‘zgartirish va an‘anaviy ochiq landshaftlarni saqlab qolish uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin; - yaylovlarga asoslangan chorvachilik fermer xo‘jaliklari o‘rmon yong‘inlari va ular bilan bog‘liq eroziya jarayonlarining oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.
Siyosiy	<ul style="list-style-type: none"> - qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash, ekologik muammolarga hukumat tomonidan qaratilayotgan e‘tibor va huquqiy asoslarining ta‘minlanganligi; - qishloqni rivojlantirish, ekologik muammolarga e‘tibor hamda an‘anaviy qishloq xo‘jaligini saqlab qolish masalalarining qo‘llab-quvvatlanishi; - oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga o‘ziga xos turli talablarning qo‘yilishi; - qishloq xo‘jaligini sanoatlashtirish, adolatli savdo, oziq-ovqat xavfsizligi, hayvonlar farovonligi va boshqalarga qo‘yiladigan talablar; - qishloq joylarida umumiy turmush sharoiti va ta‘lim, sog‘liqni saqlash va dam olish xizmatlaridan foydalanishni yaxshilashga qaratilayotgan e‘tibor.

⁶ Manba: mavjud nazariy va amaliy tadqiqotlarni o‘rganish asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Bugungi kunda yuqori tabiiy iqlimga ega hududlarda yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan noyob mahalliy biologik xilma-xillikni saqlab qolish, iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash maqsadida chorvachilikka alohida e‘tibor qaratilmoqda⁷. Shu sababdan yaylovda chorvachilik tizimining barqarorligiga erishishning maqsadlari belgilab olingan (1-rasm).



1-rasm. Yaylovda chorvachilik tizimining barqarorligiga erishishning maqsadlari⁸.

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda mahalliy aholi ehtiyojlarini ham hisobga olish lozim, chunki har bir hududda ijtimoiy-iqtisodiy holatdan kelib chiqqan holda mahsulotga bo‘lgan talab o‘zgarib turadi. Bu o‘z navbatida fermer xo‘jaligi faoliyati barqarorligini ta‘minlashning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari hozirgi vaqtda iste‘molchilar mahsulotning ekologik tozaligi masalasiga ham alohida e‘tibor qaratishmoqda va bu mahsulot narxidagi farqlarda ham namoyon bo‘ladi. Yuqorida ta‘kidlanganidek, yaylovlarda chorvachilikni tashkil qilishdan oldin madaniy, ijtimoiy va ahloqiy masalalarni ham hisobga olish lozim.

Chunki, insonlar go‘sht, mol go‘shti yoki qo‘y go‘shti iste‘mol qilmaydigan hududlarda go‘sht yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaligini tashkil qilishda barqarorlikni ta‘minlash masalasi muammo bo‘lib qolishi mumkin. Ya‘ni, bu kabi hududlarda chorvachilikning boshqa mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan foydalanishni optimallashtirishda uning o‘zga xususiyatlaridan tuproq tarkibi va unga qarab mahsulot yetishtirish hajmi hamda sarflanadigan xarajat sarf va ilk faoliyatni optimallashtirishda xarajatni minimallashtirish yoki daromadni maksimallashtirish mumkin. Ushbu masalaning qo‘yilishini nazariy jihatdan ko‘rib chiqamiz. Modelning maqsad funksiyasi xarajatni minimallashtirishga qaratilgan:

⁷ Council of Europe. European Landscape Convention; European Treaty Series: Florence, Italy, 2000; p. 4. Available on-line: <http://www.convenzioneeuropeapeaesaggio.beniculturali.it/uploads/Council%20of%20Europe%20-%20European%20Landscape%20Convention.pdf> (accessed on 8 February 2021).

⁸ Manba: mavjud nazariy va amaliy tadqiqotlarni o‘rganish asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

$$f = \sum_{k \in K} \sum_{j \in J} \sum_{i \in I} c_{ijk} x_{ijk} \rightarrow \min \quad (1)$$

Bu yerda: c_{ijk} - i hududdagi k maydonida j mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi (shartli birlikda/kg); x_{ijk} - i hududning k maydonidan olingan j mahsulotning hajmi (tonna).

$$\begin{aligned} \sum_{k \in K} \sum_{i \in I} \frac{x_{ijk}}{y_{ijk}} &\leq S_j \\ \sum_{k \in K} \sum_{i \in I} x_{ijk} &\geq V_j \\ \sum_{k \in K} \sum_{i \in I} k_{ijk} x_{ijk} &\leq K_j \\ \sum_{k \in K} \sum_{j \in J} w_{mijk} x_{ijk} &\leq W_{mi} \\ \sum_{k \in K} \sum_{j \in J} \sum_{i \in I} d_{ijk} x_{ijk} &\leq D \\ x_{ijk} &\geq 0 \end{aligned} \quad (2)$$

Bu yerda: y_{ijk} - i hududning k maydonidagi j qishloq xo'jaligi ekinining hosildorligi (tonna/ga); S_j - j qishloq xo'jaligi ekinini yetishtirish uchun mavjud ekin maydoni (ga); V_j - j qishloq xo'jaligi ekinini yetishtirishning minimal hajmi (tonna); k_{ijk} - i hududning k maydonidagi j qishloq xo'jaligi ekin birligini yetishtirish uchun zarur mehnat sarfi (kishi soat/tonna); K_j - j qishloq xo'jaligi ekinini ishlab chiqarish xarajatlarini cheklash (mln. so'm); w_{mijk} - m turdagi o'g'itning i hududda j ekin turi birligini yetishtirish uchun zarur miqdori (tonna/ga); W_{mi} - m turdagi o'g'itning i hudud uchun ajratilgan limiti (tonnada); d_{ijk} - i hududning k maydonidagi j qishloq xo'jaligi ekinini olish uchun xarajat (mln. so'm/tonna); D - ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkin bo'lgan xarajat miqdori (mln.so'm).

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda qator cheklovlar mavjud, ular yer maydoni, har bir mahsulot turi bo'yicha ishlab chiqarishning minimal darajasi, mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ishchi kuchi, o'g'it miqdori, ruxsat etilgan ishlab chiqarish xarajatlari. Ushbu keltirib o'tilgan cheklovlar yuqoridagi ko'rinishda berib o'tilgan.

Chorvani o'tlatishni tashkil qilishda yaylovlardan almashlab foydalanish tuproq samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ammo, bu ancha murrakab va ko'p vaqt talab qiluvchi jarayon hisoblanadi, lekin ushbu usuldan foydalanish tuproq samaradorligiga erishish uchun 3-5 yil kerak bo'ladi⁹. O'rtacha yillik yog'in miqdori 1000 millimetrni tashkil qiladigan Ispaniya shimolida qo'ylarni intensiv va navbatma-navbat o'tlatish yem-xashak yetishtirish va uglerod zaxirasini oshirish imkoniyatini yaratib beradi¹⁰. Ushbu usuldan foydalanishning o'ziga xos

⁹ Mosier S.; Apfelbaum S.; Byck P.; Cotrufo F.M.F. Adaptive multi paddock grazing enhances nitrogen stock and stabilization throughout southeastern grazing lands. J. Environ. Manag. 2021, 288, 112409.

¹⁰ de Otalora X.; Epelde L.; Arranz J.; Garbisu C.; Ruiz R.; Mandaluniz N. Regenerative rotational grazing management of dairy sheep increases springtime grass production and topsoil carbon storage. Ecol. Indictors 2020, 125, 107484.

kamchiliklaridan biri chorva mahsuldorligining kamayishi hisoblanadi va bu yaylovlardan navbatma-navbat foydalanishni tashkil qilishning dastlabki bosqichida sodir bo'ladi¹¹. Ammo hayvonlarni bu usulga moslashishi keltirib o'tilgan muammoni o'z-o'zida yo'q bo'lishiga olib keladi va yomg'ir ko'p bo'lgan hududlarda nisbatan juda samarali hisoblanadi.

Qurg'oqchilik darajasi yuqori bo'lgan Qoraqalpog'istonning shimoliy hududlarda baland va intensiv, navbatma-navbat gavjum o'tlashni tashkil qilish, xususan chorvadagi go'sht yetishtirish samaradorligini kamaytiradi. Bu muammoning yechimini avvalambor yaylov samaradorligini oshirish va chorva tarkibini optimallashtirishni izlash bo'yicha samarali tadqiqotlarni davom ettirish masalasi haligacha dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Jumladan, AQSH ning G'arbida baland tekisliklaridan chorvachilik bilan shug'ullanish keng tarqalishi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining Shimoliy hududlari va Ustyurt platosi sharoitiga o'xshab ketadi. AQSH ning bu madaniylashgan tekisliklari mamlakatning o'rtasida joylashgan bo'lib, Kolorado, Kanzas, Montana, Shimoliy Dakota va Janubiy Dakota shtatlarini o'z ichiga oladi. Baland tekisliklarning sharqiy qismida lalmi dehqonchilik bilan shug'ullanish uchun zarur darajadagi yog'ingarchilik kuzatiladi, ammo g'arbiy qismida chorvachilik bilan shug'ullanish keng tarqalgan. Bu shtatlar baland tekisliklardan samarali chorvachilik tajribalaridan bizning shimoliy va Ustyurt platosi bu sohani rivojlantirishda unumli foydalanish mumkin.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpog'istonda yaylovlardan foydalanish, chorvachilikni rivojlantirish samaradorligini miqdoriy baholash”** deb nomlangan ikkinchi bobida Qoraqalpog'iston Respublikasida chorva tarkibi va yer fondi o'zgarishi dinamikasining statistik tahlili amalga oshirilgan, Qo'ng'iroq tumanida chorvachilikni rivojlantirishda yaylovlardan foydalanish samaradorligi baholangan.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda muhim omil yer fondining yillar davomida pasayishi, sohani intensivlashtirish, mavjud imkoniyatlar doirasida mahsulot yetishtirish jarayonlarini optimallashtirishni talab qiladi. Mazkur jarayonning o'zgarishi nisbatan sekin bo'lganligi sababli tadqiqot uchun 1990-2021 yillar ma'lumotlari olindi va yer fondi tarkibiy o'zgarishlari qarab chiqildi (2-jadvalga qarang).

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilar ixtiyoridagi yer maydoni tadqiq qilinayotgan davrda 2,13 barobarga kamaygan va bunda asosiy ulush pichanzor va yaylovlar hamda boshqa yerlar hissasiga to'g'ri kelib, mos ravishda 2,38 hamda 2,15 foizga kamaygan. Haydaladigan yerlarning deyarli o'zgarmaganligi, ko'p yillik o'simliklar maydonining dastlabki yillarda oshib keyingi yillarda kamayishi dehqonchilikda yer fondining kamaymaganligini asoslaydi.

¹¹ DiVirgilio, A.; Lambertucci, S.A.; Morales, J.M. Sustainable grazing management of rangelands: Over a century of searching for a silver bullet. *Agric. Ecosyst. Environ.* 2019, 283, 106561.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida qishloq xo‘jaligi va tashkilotlarining foydalanadigan yerlari tarkibiy tuzilishining o‘zgarish dinamikasi¹²

Yillar	Q/x ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi yerdan foydalanuvchilar ixtiyoridagi yer maydoni (ga)	Shu jumladan:			
		Haydaladigan yerlar (ga)	Ko‘p yillik o‘simliklar (ga)	Pichanzorlar va yaylovlar (ga)	Boshqa yerlar (ga)
1990	6943144	431977	7930	4076742	2426495
1995	6212771	428582	12692	3762091	2009406
2000	3204022	417437	11554	1594554	1180477
2005	3209435	415947	8355	1592764	1192369
2010	3271204	422159	8547	1666512	1173986
2015	3218835	416688	8248	1654591	1139308
2020	3326690	413294	7862	1709775	1202201
2021	3259524	414253	7827	1709628	1130310
2021 yilda 1990 yilga nisbatan o‘zgarishi	2,13	1,04	1,01	2,38	2,15

Yer fondining ekologik bosim, ya’ni tabiiy-iqlim sharoitlarini o‘zgarishi natijasida ekologik omillar salbiy ta’sirining kuchayishi hisobiga kamayishiga qaramasdan mintaqada chorva bosh soni keyingi 31 yil mobaynida 2,6 barobarga oshgan. Ushbu natijaga erishishda asosiy hissa qoramollar hamda qo‘y-echkilarga to‘g‘ri kelmoqda. Qoramollar tarkibida sigirlar sonini jamiga nisbatan pastroq darajada o‘sishi mahsulot yetishtirishda go’shtga ko‘proq e’tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi. Bu boqish usuli bilan ham bog‘liq bo‘lib, yaylovlarda biomassa tarkibi va hajmini o‘zgarishi buning asosiy sababi sifatida qaraladi.

Ushbu o‘zgarishlar mintaqada mavjud chorva tarkibiga qanday ta’sir ko‘rsatganligini aniqlash maqsadida tadqiq qilinayotgan davrda chorva tarkibining o‘zgarish dinamikasi keyingi 3-jadvalda tahlil qilindi. Bunga ko‘ra eng yuqori o‘zgarish echkilar soniga to‘g‘ri kelmoqda. Natijada, qo‘y va echkilarning jami sonida echkilar ulushi 16,3 foizdan 44,7 foizgacha oshganligi aniqlandi. Bundan ko‘rinadiki echkichilikni rivojlantirish istiqbolli yo‘nalishlardan hisobalanadi.

Yaylov va pichanzorlardan foydalanishning mavjud holati chorva bosh soni, tarkibi va chorva mahsulotlari miqdoriga ta’siri korrelyatsion tahlil usuli orqali ko‘rsatkichlar orasidagi bog‘liqlikning zichligini aniqlash asosida yuqoridagi 4-jadvalda baholandi.

¹² Manba: O‘zbekiston Respublikasining yer fondi (2021 yil 1 yanvar holatiga, 41-bet) ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

3-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida chorva bosh soni va tarkibiy tuzilishining o‘zgarish dinamikasi¹³

Yillar	Jami	Qora-mollar (birlik)	Shu jum-ladan:	Qo‘y va echkilar (birlik)	Shu jumla-dan:	Otlar (birlik)	Tuya-lar (birlik)
			Sigirlar (birlik)		Qo‘ylar (birlik)		
1990	921975	373198	145305	529991	443816	13805	4981
1995	913527	403121	170936	487304	395622	18230	4872
2000	838456	379814	162531	437438	306934	16688	4516
2005	998265	437738	182897	539868	335970	15777	4882
2010	1469775	715792	237796	730276	470197	18302	5405
2015	1774108	871735	269317	876854	516095	20274	5245
2020	2274095	1109625	321047	1135088	625433	24465	4917
2021	2385554	1175800	340400	1178000	651439	26701	5053
1990 yilga nisbatan o‘zgarishi	2,6	3,2	2,3	2,2	1,5	1,9	1

4-jadval

Qo‘ng‘irot tumanida yaylovlar va pichanzorlar maydoni o‘zgarishining chorva bosh soni hamda chorvachilik mahsulotlari yetishtirish hajmiga ta‘sirini baholash bo‘yicha korrelyatsion tahlil natijalari¹⁴

	MT	ML	MSHG	MH	MILK	WOOL	LEA	L	LL	LC	LSHG	LSH	LH	LCA	PAS
MT	1,00														
ML	0,99	1,00													
MSHG	0,96	0,91	1,00												
MH	0,33	0,20	0,54	1,00											
MILK	0,96	0,93	0,98	0,48	1,00										
WOOL	0,70	0,61	0,83	0,84	0,77	1,00									
LEA	-0,04	-0,17	0,18	0,85	0,14	0,50	1,00								
L	0,97	0,97	0,92	0,28	0,92	0,72	-0,10	1,00							
LL	0,92	0,94	0,84	0,10	0,83	0,60	-0,32	0,97	1,00						
LC	0,93	0,95	0,82	0,08	0,82	0,57	-0,32	0,97	0,98	1,00					
LSHG	0,97	0,94	0,96	0,45	0,95	0,81	0,10	0,98	0,90	0,90	1,00				
LSH	0,18	0,07	0,41	0,86	0,35	0,71	0,90	0,20	0,01	-0,01	0,38	1,00			
LH	0,64	0,67	0,57	0,05	0,64	0,21	0,07	0,60	0,50	0,54	0,64	0,19	1,00		
LCA	0,73	0,76	0,65	0,05	0,68	0,33	-0,03	0,73	0,65	0,72	0,75	0,18	0,93	1,00	
PAS	0,09	-0,01	0,25	0,77	0,24	0,44	0,94	0,00	-0,23	-0,20	0,21	0,84	0,33	0,19	1,00

¹³ Manba: Muallif ishlanmasi.

¹⁴ Manba: Muallif ishlanmasi.

Bu yerda: MT – yetishtirilgan go'sht miqdori (tirik vaznda, tonna); ML – yetishtirilgan qoramol go'shti (tonna); MSHG - yetishtirilgan qo'y va echki go'shti (tonna); MH - yetishtirilgan ot go'shti (tonna); MILK – yetishtirilgan sut miqdori (tonna); WOOL - jun (fizik vaznda); LEA – yetishtirilgan qorako'l terisi (dona); L – chorva bosh soni jami (bosh); LL – qoramollar bosh soni jami (bosh); LC - sigirlar bosh soni jami (bosh); LSHG - qo'y va echkilar bosh soni jami (bosh); LSH - qo'ylar bosh soni jami (bosh); LH - otlar bosh soni jami (bosh); LCA - tuyalar bosh soni jami (bosh); PAS - pichanzorlar va yaylovlar maydoni (gektar).

Yetishtirilgan umumiy go'sht miqdori bilan chorva bosh soni orasida yuqori bog'liqlik mavjudligi aniqlandi, ya'ni, korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,97 ni tashkil qilmoqda. Qoramollar hamda qo'y va echkilar bosh soni hamda yetishtirilgan go'sht miqdori orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti mos ravishda 0,92 va 0,97 ga teng. Ot va tuyalar bosh soni ham go'sht hajmiga yetarli darajada ahamiyatli ta'sirga ega ekanligi aniqlandi. Boshqa tomondan pichanzorlar va yaylovlar bilan yetishtirilgan go'sht miqdori orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,09 ga teng bo'lgani holda go'sht yetishtirishda pichanzorlar va yaylovlardan samarali foydalanilmayotganligini asoslamoqda.

Korrelyatsion tahlil natijalari pichanzorlar va yaylovlar qorako'l terisi hamda ot go'shti yetishtirishda yuqori darajada ahamiyatli ekanligini asoslamoqda. Ammo yetishtirilgan jami go'sht bilan ot go'shti orasidagi bog'liqlik ancha zaif, ya'ni korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,33 ga teng. Boshqa barcha holatlarda mahsulot yetishtirish bilan pichanzor va yaylovlar maydoni orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,50 ga teng kichik qiymatga ega bo'lmoqda.

Yaylovlar va pichanzorlar maydonidagi o'zgarishning mahsulot yetishtirish hajmiga ta'sirini regression tahlil asosida baholab o'tildi. Jami yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlariga yaylovlar va pichanzorlar ta'sirini baholash natijalari talab darajasida emasligi sababli, qo'shimcha omil sifatida boshqa yerlar ham kiritildi. Model natijalariga ko'ra madaniylashgan yaylovlar va pichanzorlar maydonining bir foizga oshishi yalpi chorvachilik mahsulotlari miqdorini 0,85 foizga oshiradi. Ammo, boshqa yerlar maydonidagi o'zgarish teskari ta'sirga ega.

$$\begin{aligned} \ln Y &= 11,12 + 0,85 * \ln PAS - 1,16 \ln OTH \\ se &= (1,00) (0,15) (0,14) \\ t &= (11,07) (5,84) (-8,13) R^2 = 0,71 \end{aligned} \quad (3)$$

Bu yerda: PAS – pichanzor va yaylovlar maydoni (gektar); OTH – boshqa yerlar (gektar).

Shuningdek, muhim chorvachilik mahsulotlari hisoblangan go'sht, sut, jun va qorako'l terisini yetishtirishga yaylov va pichanzorlar maydonidagi o'zgarishlar ta'siri 5-jadvalda baholab o'tildi. Yaylovlar va pichanzorlarning chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda ahamiyati juda past, jumladan go'sht va jun yetishtirishni yaylovlar va pichanzorlar bo'yicha elastiklik koeffitsiyentlari mos ravishda -0,06 hamda -0,14 ni tashkil qiladi. Asosiysi sut mahsulotlari yetishtirishni yaylov va pichanzorlar maydoni bilan hech qanday bog'liqligi mavjud emas.

5-jadval

Qo'ng'iroq tumanida muhim chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmiga qishloq xo'jaligi tashkilotlari ixtiyoridagi yaylovlar va pichanzorlar maydonining o'zgarish ta'sirini baholash bo'yicha regression tahlil natijalari¹⁵

№	Model	Styudent mezon	R ²	MAPE
1.	$\ln MT_t = -0.06 * \ln PAS + 1,1 * \ln MT_{t-1}$	b ₁ = -2,3 b ₂ = 26,31	0,99	1,1
2.	$\ln WOOL_t = 1,24 - 0.14 * \ln PAS + 1,08 * \ln WOOL_{t-1}$	b ₀ = 5,13 b ₁ = -5,09 b ₂ = 22,63	0,96	1,15
3.	$\ln LEA_t = 0,96 + 0.09 * \ln PAS + 0,76 * \ln LEA_{t-1}$	b ₀ = 3,97 b ₁ = 2,87 b ₂ = 14,57	0,97	0,43

Shuningdek, pichanzorlar va yaylovlarning chorva turlarini rivojlantirishga ta'siri regression tahlil usuli yordamida baholandi (6-jadval).

6-jadval

Qo'ng'iroq tumanida qishloq xo'jaligi tashkilotlari ixtiyoridagi yaylov va pichanzorlar maydoni o'zgarishini chorva turlariga ta'sirini baholash bo'yicha regression tahlil natijalari¹⁶

№	Model	Styudent mezon	R ²	MAPE
1.	$\ln L_t = -0.59 - 0,03 * \ln PAS + 1,09 * \ln L_{t-1}$	b ₀ = -1,99 b ₁ = -3,17 b ₂ = 40,37	0,98	0,2
2.	$\ln LL_t = -0,03 * \ln PAS + 1,04 * \ln LL_{t-1}$	b ₁ = -2,989 b ₂ = 91,37	0,99	0,26
3.	$\ln LSHG_t = -0,88 - 0,04 * \ln PAS + 1,12 * \ln LSHG_{t-1}$	b ₀ = -2,30 b ₁ = -3,44 b ₂ = 28,54	0,97	0,23
4.	$\ln LH_t = 0,80 + 0,09 * \ln PAS + 0,73 * \ln LH_{t-1}$	b ₀ = 1,85 b ₁ = 5,61 b ₂ = 11,47	0,90	0,47
5.	$\ln LCA_t = 0,05 * \ln PAS + 0,91 * \ln LCA_{t-1}$	b ₁ = 3,18 b ₂ = 30,69	0,99	0,52

